

Isroil Mirzo

Quyosh haqida suhbat



«FARG'ONA» nashriyoti,
2012 yil.

УДК: 821.512.133-1

84(59)6

M-14

- 936.9908.

Isroil Mirzo. **QUYOSH HAQIDA SUHBAT** // She'rlar / D.Isroilov
Farg'ona: «FARG'ONA» nashriyoti, 2012 y. –32 b.


*She'r bir marta o'qishdayoq ko'ngilda ilqlik,
yorug'lik hosil qildimi, uni bitgan qalam sohibiga
nisbatan she'rxonda ruhiy yaqinlik yuzaga keladi.
"Quyosh haqida suhbat"ni o'qib chiqib, to'plam
muallifi bo'lgan yosh ijodkorga mehringiz tushib
qolishiga, unga chin dildan omadlar tilashingizga
ishonchimiz komil, deya dadil ayta olamiz.*

ISBN: 978-9943-349-48-3

10 406411
0

УДК: 821.512.133-1

КБК: 84(59)6



© «ФАРФОНА» nashriyoti, 2012
© Isroil MIRZO

ERTAKLAR HAQIDA O`YLAR

Ertaklarda hayotni
Ko`rsatishar boshqacha.
Unda hamma mehribon,
Mo`ysafid-u yoshgacha.

Unda men orzu qilgan
Hayot topgan aksini.
Shu bois unga tekkay
Orzumand xalq tahsini.

Yovuzlikka o`rin yo`ql
Men ham ulg`ayib bir kun,
Ertaklar yarataman
Quvnoq bolalar uchun.

Ertaklardagi hayot –
Men orzu qilgan hayot.
Uchar gilam, uchar ot,
Tilga kirgan hayvonot...

Ezgulik va baxt bilan
Poyonga yetar har dam,
Shuning uchun ularni
Sevib o`qiyman men ham!

POLIZLARDA XAYOLIM

Xayolim – polizda,
Uyimdan olisda.
Ko`p kunlarni ko`rgan
Bobom bilan birga
Bu yil eksak qovun,
Parvarishlab har kun,
Quyosh bersa yordam,
Qaralashsam men ham...
Yomg`ir to`ksa suvin,
Unib-o`ssa qovun.
Shu bilan ovunib,
Pishganda qovunim,
Sizni qilay mehmon,
Keling, aziz insonl



HALOL CHUMOLI

Yer ustidan yurib o`tar chumoli,
Olisroqda yotgan donda xayoli.
Nima topsa, inga tashir, qo`ymaydi,
Kichik boshni katta tashvish qiynaydi.

Bir vaqt rahmim kelib sho`rluk joniga,
Qo`lda tutib, olib kirdim iniga.
Lek olmadi u men bergan donni ham,
Halol topsam derkan kichik nonni ham...



VARRAGIM

Olislarni ko'zlab uchgan varragim,
Uchar bo'lsang bu kun uzoq tog' tomon,
Tog'dagi do'stimning keltir daragin,
Va unga ham aytgin: «Do'sting sog'-omon».

Olislarni ko'zlab uchgan varragim,
Ortingga burilma, osmonlarni quch.
Endi ilm turmoqning yo'qdir keragi,
Shamolga ergashib, baland-baland uch.

Olislarni ko'zlab uchgan varragim,
Qo'y, meni o'ylama, yo'llingdan qolma.
Faqat so'nggi bora pastga qaragin,
Qo'l silkib turibman, Varragim, olg'al



KAMALAK

Biz – «Kamalak» bolalari,
Intilamiz maqsad sari.
Dilda orzu bisyor hali,
Bizni deya joni halak,
Bu – Kamolot, bu – Kamalak.

Mehr-shafqat o`rgatar u ,
To`g`ri yo`lni ko`rsatar u.
Qing`ir ishni to`xtatar u,
Dastyorimiz, joni halak,
Bu – Kamolot, bu – Kamalak.

Parvoz etsak, qanotimiz,
Ham jonimiz, hayotimiz.
Qozoq, o`zbek, tatar, qirg`iz...
Bari uchun joni halak,
Bu – Kamolot, bu – Kamalak.

Vatanparvar bo`ling deydi,
Ezgu ishlar qiling deydi.
Birga o`ynab-kuling deydi,
Do`stlik uchun joni halak,
Bu – Kamolot, bu – Kamalak.

Birlashaylik, jon o`rtoqlar,
Botir yigit, qizaloqlar.
Bizni do`stlik ipi bog`lar,
Bunda aylar jonni halak,
Bu – Kamolot, bu – Kamalak!

XO`ROZQANDIM

Xo`rozqandim, xo`rozqand,
Xayolim sen bilan band.
Xo`rozsana-u, joning yo`q,
Mendan mehriboning yo`q.

O`ylayman: ko`proq yesam,
Onamga rahmat desam.
Xo`rozsana, qichqirmaysana,
Hech gapimga kirmaysana.

Mazalisan, to`yimli,
Bolalarga suyumli.
Men uchun sen davlatsana,
Xo`roz emas, bir qandsana!



MUZQAYMOQ

Shokolad, non va qaymoq...
Yeganlar bo'lar quvnoq.
Turim ko'pdir mening ham,
Sirim ko'pdir mening ham.

Muzlatgichda turaman,
Sovuqni xush ko'raman.
Bolajonlar yalashar,
Bir-biridan talashar.

Yeng mehnatga yarasha,
Faqat qilmang xarxasha.
Obermasa onangiz,
Chiqmasin esxonangiz.

Totib ko'rgan har kishi,
Arir ekan tashvishi.
Mehnat qilsangiz, o'rtoq,
Meni yalaysiz ko'proq!



MAKTABDA

Qo`shishni ham o`rgandim,
Bo`lishni ham o`rgandim.
Besh olganda baxtiyor
Bo`lishni ham o`rgandim.

Maktabim ochdi quchoq,
Topildi tengqur o`rtoq.
Raqamni ajrataman,
Qaysisi juft, qaysi toq.

Menga yo`q qiyin savol,
Harf o`qiyman bermalol.
Ishonmasang gapimga...
Do`stlarimdan so`rayqol.

Men uchun chekdi zahmat,
Ustozlik- buyuk talant.
Ustozimga ming rahmat,
Ustozimga ming rahmat!



MUSHUK BOLALARI

Mushuk bolalari ham
O`yin o`ynarmish, qarang!
Hatto sovuq qotmasmish
Yursa-da oyoq yalang.

Onasini ko`rganda
Erkalab miyovlaydi.
Hozircha pashsha tutar,
Bir kun sichqon ovlaydi.

Menga juda yoqadi
Mushuklarning bolasi.
Bari birdek boladir,
Sariqmi, oq, qorasi.



QUVNOQ BOLALAR

Ikkimi yo uch yoshda
Bog`chalarga bordik biz.
Ota-onamiz ishda,
Xo`p sog`inib qoldik biz.

Bugun esa ilk bora
Maktabga qo`ydik qadam.
Alifbo, yozuv, karra...
Yayrab o`qiydi odam.

Ustozimiz o`rgatar,
Avvalo odam bo`l, der.
Bizga mehr ko`rsatar,
Mana shu to`g`ri yo`l, der.

Biz quvnoq bolalarmiz,
O`g`ilmi qiz birdayin,
Tog`dagi lolalarmiz,
Ochildik bahordayin.

Oilamiz mustahkam,
Hamma birdek mehribon.
Ko`ngil rishtamiz mahkam,
Uzilmaydi hech qachon.

Endi ortga qaytish yo`q,
Olg`a qadam tashlanar.
Vatan ham o`ziga to`q
Oiladan boshlanar!

QUYOSH HAQIDA SUHBAT

- Nega osmon yuzida
Quyosh bitta bo`ladi?
- Ko`p bo`lsa bir-birini
Kuydirib kul qiladi!

- Quyoshdan ham issiqroq
Nima bor bu dunyoda?
- Odam qalbining tafti
Quyoshdan ham ziyodal

- Nega quyoshga chiqmas
Oyga ucholgan inson?
- Olovga yaqin borgan
Omon qaytmas hech qachon!

- Yer yuzida qish bo`lsa,
Quyosh qayda bo`ladi?
- To bahor qaytmaguncha
Oftoboy dam oladi.

- Suv obi-hayot bo`lsa,
Qishda o`smas-ku ekin?
- Suv bilan tirik jonga
Quyosh ham kerak, lekin.

- Anglab oldim bir sirni,
Anglab oldim, ustozim.
Quyosh kerak bizlarga,
Qadriga yetmoq lozim!

OPA-UKALAR

Sakkiz yoshli qizaloq
Sotib oldi muzqaymoq.
Yalab ko`rib, bol, dedi,
Uka, sen ham ol, dedi.

Ukasi ololmadi,
Chunki puli qolmadi.
Cho`ntakdan ming so`m olib,
Sotuvchi tomon borib,

Besh yoshli G`anijonni,
Shod qildi opajoni.
Ikkalasi shod-xurram
Qilishardi bir bayram...



SHE`R

She`r yozadi Barnoxon:

– Qadrdonim, onajon!
Sizni yaxshi ko`raman,
Men ham ona bo`laman.

She`r yozadi Omontoy:

– Inga kirib sichqonvoy,
Baroqni ermak qildi,
Baroq bugun och qoldi.

She`r yozadi Shukrona:

– Atrofimda parvona,
Onajonim bor bo`lsin,
Otajonim bor bo`lsin!

She`r yozadi Shoqosim:

– Omon bo`ling, ustozim!
Shogirdingiz doimo
Ta`zimlar aylar bajo.

Ularning she`rin ko`rib,

Zavq olaman bir olam,
Shaxsiy xonamga kirib,
She`r yozaman o`zim ham...

BOSHQACHA

Ona tilidan

Ey sen, quvnoq bolajon,
Qalb ardog'im, mehribon,
Xoh ishonma, xoh ishon,
Kulishlaring boshqacha.

Avlodim, qolar izim,
G'ururim, orim, yuzim,
Sen mening o'g'il-qizim,
Yurishlaring boshqacha.

She'rlar bitdim ertalab,
Ammo men na she'rtalab,
Tushlarimga erkalab
Kirishlaring boshqacha.

Bitganim – qalb nidosi,
Va mehrimning asosi.
Tunlarimning ziyosi
Bo'lishlaring boshqacha.

Ey sen, quvnoq bolajon,
Turishlaring boshqacha.
Tushlarimga har zamon
Kirishlaring boshqacha...


YANGI YIL BAZMIDA

Yaqinlar bir-biriga
Baxt va omad tilashar.
She`r ayttirib Qorbobo
Sovg`alarin ulashar.

Tun kirgach uyimizga
Yozamiz keng dasturxon.
Tezda kutib olamiz
Kelib qolsa gar mehmon.

Maktabimda ham bu yil,
Archa bayram bo`larkan.
Ertak qahramonlari,
Qorbobolar kelarkan.

Oyijonim, pul bering,
Qolib ketmay davradan.
Mo`jizali oqshomdan
Bo`lay men ham bahramand.



NAVRO`Z

Bugun bizning hovlimizda katta bayram,
Uy-hovlini tozalaymiz kulib-yayrab.
Men tomorqa bo`yidaman. Singlim Guli
Suvlar quyib, parvarishlar turfa gulin.

Bog`imizda ikki akam – Nor va Xolmat
Bobom bilan ekishmoqda uch tup olma.
Sevingandan aytar kenja ukam Afruz:
– Yurtimizga bugun kirib keldi Navro`z!



QORBO`RON

Hovlimizga chiqsam ertalab,
Erinmay qor yog`ar maydalab.
Yog`averar, to`xtash bilmaydi,
Qo`shiq aytgim keldi erkalab.

Qorbobolar yasagim keldi,
Sabzi bilan bezagim keldi.
Shu baxtiyor o`lkada doim
Shunday baxtli yashagim keldi.

Singlim dedi:

- Keling, akajon!

O`ynaymizmi biz ham qorbo`ron?

Qorlar otib bir-birimizga

Birgalashib o`ynadik shodon.



PARRANDALAR

Jo`jalarim chip-chip etar,
Tutay desam qochib ketar.
Chigirtkani qiradilar,
Pashshani hush ko`radilar.

Ona tovuq ququlaydi,
Mushuk o`tsa, tez quvlaydi.
Goh aylanar ko`chalarni,
Och qoldirmas jo`jalarni.

Tuproq titar parrandalar,
Erkalarim, arzandalar.
Men ularga sepaman don,
Yugurishar yemish tomon.



KO`NGILGA YO`L

- Dadajonim, bugun bog`ga kiramizmi?
- Ha, kiramiz.
- Bog`ga kirsak, Qorboboni ko`ramizmi?
- Ha, ko`ramiz.

- Qorbobojon sovg`a bersa rahmat deyman
Zavqqa to`lib.
- Sovg`a berar – qachonki sen yursang esli
Qizcha bo`lib.

- Uni ko`rsam, gaplashaman bog`chamizni
Maqtab-maqtab.
Qorboboni shod etaman she`rlar aytib
Unga atab.

- Orzularing yuksak qizim, doim shunday
Shirinso`z bo`l.
Zero, shirin kalomlardan boshlanadi
Ko`ngilga yo`l.

SHIFOKOR HUZURIDA

Isitmam chiqdimikan,
Negadir boshim og`rir.
Ko`p sovuqda yurgandim,
Shundanmi, holim og`ir.

Doktor, bir ko`rib qo`ying,
Mazam qochibdi oz-moz.
Doridan bering, faqat,
Ukol qilmang, iltimos...

SOTUVCHI HUZURIDA

– Xola, bitta qand bering!
– Xo`p bo`ladi, qizaloq!
Shokolad ham qo`shaymi?
– Kerak emas, pul kamroq.

Keyingi gal olaman,
Cho`ntagim pulga to`lsin.
– Olaqoling hozir ham,
Mendan bir sovg`a bo`lsin!

QIZALOQNING ORZUSI

Bog`cha opam mehribon,
Qayg`uradi men uchun.
Issiq ovqatlar berib,
Qornim to`ydirar har kun.

Bog`cha opam mehribon,
Uxlatadi tush payti.
She`rlar aytib beradi
Kayfiyati xush payti.

To`qqiz bo`ldi deguncha
Sayrga olib chiqar.
Yuzi yashnab gul kabi
Biz bilan kulib chiqar.

Kunda uch mahal ovqat,
Nonushta, tushlik, kechki.
E`tiborda hammamiz,
Chetda qolmaydi hech kim.

Nonushtada saryog`non,
Bo`tqani xush ko`raman.
Men ham katta bo`lganda,
Bog`cha opa bo`laman!

CHEVAR SINGLIM

Ulg'ayib katta bo'lsa,
Singlim bo'larmish chevar.
Qo'li tinim bilmaydi,
Hozirdan mehnatsevar.

Erinmay choy qo'yar u,
Shirin ovqat qiladi.
Ishdan qaytgach, singlimdan
Oyim xursand bo'ladi.

Supurgini qo'lidan
Erta-yu kech qo'ymaydi.
Faqat ish bitgachgina
Hovlimizda o'ynaydi



ILK QADAMLAR

Malikaxon ilk bora
Qadam tashlab yuribdi.
Onasi nazoratda,
Har yon boshlab yuribdi.

Muborak, Malikaxon,
Muborak ilk qadamlar!
Qutlashar mendek uni
Ko'chadagi odamlar.

Jajji oyoqchalari
Charchamasin, tolmasin.
U ham katta bo'lganda
Tashvish nima bilmasin.

Malikadek shoh tashlab,
Taxtli bo'lsin qizaloq.
Yaxshilarga yo'l boshlab,
Baxtli bo'lsin qizaloq!



ESKI KIYIMNING HASRATI

Yangi kiyim olganda
Meni tashlab qo'yding-ku.
Unutilgan do'st kabi
Ko'zim yoshlab qo'yding-ku.

Yangi o'rtoq muborak!
Keragim yo'q senga hech.
Ilgari-chi tanangdan
Yechmas eding erta-kech.

Tikib qo'ysang soz edi,
Qilmishingdan og'rindim.
Tunda sen bilan yotgan
Yotog'imni sog'indim...



BOLALAR

Siz juda ham baxtli bolasiz,
Tog`lardagi gul-u lolasiz.
Har bir ishdan hayrat olasiz,
Bolalikning qadriga yeting.

O`ynagingiz keldimi, o`ynang,
Yaqinlarning mehriga to`ymang.
Ularni o`z holiga qo`ymang,
Bolalikning qadriga yeting.

Beravering tug`ilsa savol,
Umringizda topmang bir zavol.
Sho`xlik qiling (bu ham tabiiy hol),
Bolalikning qadriga yeting.

Bir kun siz ham katta bo`lasiz,
Bolalikni qumsab qolasiz.
Ammo hozir baxtli bolasiz,
Bolalikning qadriga yeting.



MEHRIBON AKAJONIM

Gullarga ko`mgan akam,
G'amxo`rlik qilar har dam.
Qo`linga kirsa tikan,
Jonlari og`rir ekan.

Yangi she`rlar o`rgatar,
Arg`imchoqda o`ynatar.
O`rtoqlarim hammasi
Der: «mehribon, akasil»

Singlim xursand bo`lsa bas,
Deya erkalar bir pas.
Aka, aka, akajon,
Gapimni tinglang bir on.

Siz borsiz-ki, men shodman,
Siz bor-ki, men hayotman.
Akajonim, bor bo`ling,
Uzoq umrlar ko`ring!



ORZULARIM

Osmonlarda uchgim keladi,
Bulutlarni quchgim keladi.
Go`zal oqshom erka singlimga
Oyni olib tushgim keladi.

Gullar tutgim kelar bir quchoq,
Erkalagim keladi uzoq.
Baxtli kunlar baxsh etgim kelar,
Arg`imchoqda uchirib ko`proq.

Men singlimning qadriga yetib,
Borligiga shukrona etib,
Bog`cha-maktab yetaklab boray,
Erta tongda qo`lidan tutib...

Osmonlarda uchgim keladi,
Bulutlarni quchgim keladi.
Go`zal oqshom erka singlimga
Oyni olib tushgim keladi...



BIZNING BOG`DA

O`zbekiston bog`lari
Bolalar bilan gavjum.
Unda yayrab o`ynashar,
Gul-u lolalar mavjud.

Istasalar, bermalol,
Arg`imchoqda uchishar.
Zerikmaslar hech qachon,
Faqat ko`ngil ochishar.

Bizning shinam bog`larga
Bir keling, aziz mehmon!
Muzqaymoq yeb ketasiz,
Bizni aylab shodumon.

Yo charxpalakda uchib,
Bir oz hordiq olasiz.
Bir marta kelgandan so`ng
Ketmayman deb qolasiz!



MUNDARIJA

<i>Ertaklar haqida o'ylar</i>	3
<i>Polizlarda xayolim</i>	4
<i>Halol chumoli</i>	5
<i>Varragim</i>	6
<i>Kamalak</i>	7
<i>Xo'rozqandim</i>	8
<i>Muzqaymoq</i>	9
<i>Maktabda</i>	10
<i>Mushuk bolalari</i>	11
<i>Quvmoq bolalar</i>	12
<i>Quyosh haqida suhbat</i>	13
<i>Opa-ukalar</i>	14
<i>She'r</i>	15
<i>Boshqacha</i>	16
<i>Yangi yil bazmida</i>	17
<i>Navro'z</i>	18
<i>Qorbo'ron</i>	19
<i>Parrandalar</i>	20
<i>Ko'ngilga yo'l</i>	21
<i>Shifokor huzurida</i>	22
<i>Sotuvchi huzurida</i>	22
<i>Qizaloqning orzusi</i>	<i>Ошибка! Закладка не определена.</i>
<i>Chevar singlim</i>	24
<i>Ilk qadamlar</i>	25
<i>Eski kiyimning hasrati</i>	26
<i>Bolalar</i>	27
<i>Mehribon akajonim</i>	28
<i>Orzularim</i>	29
<i>Bizning bog'da</i>	30

Adabiy-badiiy nashr

Isroil Mirzo

QUYOSH HAQIDA SUHBAT

She'rlar

Muharrir:	A. Sodiqov
Tex. muharrir:	N. Hoshimov
Dizayner:	O. Hasanov

Nashriyot litsenziyasi: AI №. 162. 2009 yil 14 avgust.

Terishga berildi: 04.06.2012 yil. Bosishga ruxsat etildi: 27.09.2012 yil.

Calibri garniturası. Ofset usuli. Ofset qog'ozi. Bichimi: 60x84 /₁₆.

Nashriyot bosma tabog'i: 2,00. Shartli bosma tabog'i: 2,25. Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 47 Bahosi shartnoma asosida.

«FARG'ONA» nashriyoti.

150114. Farg'ona shahri, Sohibqiron Temur ko'chasi, 28-uy.

“SIRIUS-MEDIA” MCHJ

100100. Toshkent shahar, Bobur ko'chasi 4.